

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

N: 2
(66487)
2005 yil
10 yanvar - 16 yanvar

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqa
boshlagan


O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.



HAM SPORT, HAM KITOB



Men Toshkent shahri, S.Rahimov tumanidagi 119-maktabning 5-«V» sinfida o'qiyman. Sinfoshlarimizning barchasi bir-biri bilan ahil, do'st. Dars qoldiradigan, buning ustiga yomon baholarga o'qiydigan o'quvchilar yo'q hisobi. Men ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bobolarimiz Bobur, Alisher Navoiy, Umar Hayyom g'azallarini sevib



tenggi o'g'il va qizlarning yozgan xandalari-yu she'rlarini o'qib berdilar. Bu gazeta haqida suhatimiz chunonam qizib ketdiki, sinfimizdagi barcha o'quvchilar «Ertagayoq bu gazetaga obuna bo'lamiz», deb ketishdi. Men bu gapga to'g'risi, uncha ishonmagandim. Lekin ertasi kuniyoq barcha o'quvchilar yillik obuna uchun pul

USTOZ DA'VATI

o'qiyman, ularni yoddan aytish esa jon-u dilim. Meni maqtanchoq demang-u, maktabimizdagi tashkiliy ishlarda ham faol qatnashib turaman. Bir kuni sinf rahbarimiz Muhayyam opa Erkaboyeva bizga «Tong yulduzi» gazetasini ko'rsatdilar. Undagi biri-biridan qiziqarli maqolalar, biz

yig'ishdi. Endi yil bo'yi bu gazetaning turli-tuman boshqotirmalari ayniqsa, ijodkor o'quvchilarning yangi ijodlaridan bahramand bo'lamiz. Ustozimizning da'vati va qiziqirishi sabab, bir kunda butun sinf o'z gazetasiga obuna bo'lsa bo'lar ekan-ku.

Akbar HABIBULLAYEV.

TAHRIRIYATDAN:

Ha, ustoz yo'lga solishi, yangiliklardan xabardor qilib, bolalar ma'naviyati uchun kurashishi darkor. Afsuski, barcha viloyatlarda ham bunday ustozlar ko'pga o'xshamaydi. Yo'qsa, hatto maktablari sonicha ham obunaga hissasini qo'shmagan Navoiy, Sirdaryo, Xorazm, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida ham obunachilarimiz soni samarqandlik mushtariylarimizdan kam bo'lmasdi. Bu mavzuga yana qaytamiz.

TA'TIL MEHNAT-LA TATIR

Qishki ta'til mazza-da. Rosa o'ynab, dam olayapmiz. Gupillatib qor yog'ib bersa bormi, kim o'zarga Qorbobo-yu Qorqiz yasardik. Faqat bugina emas, ta'til davrida Toshkentga o'tlanib, oilamiz bilan birga sirkka, Qo'g'irchoq teatri tomoshalariga, Amir Temur muzeyiga bordik. Ta'til faqatgina dam olish uchun emas, o'tgan darslarni takrorlab, bajarilmagan vazifalarimizni bajarish uchun ham beriladi. Qancha ko'p kitob o'qib, sayohatlar uyushtirsak, shuncha ko'p bilimga ega bo'lamiz. Bundan tashqari, og'zaki nutqimizni o'stirish uchun ham ko'plab badiiy kitoblar o'qishimiz lozim. Men o'zim «Sariq devni minib», «O'zbek xalq ertaklari» kabi kitoblarni miriqib o'qidim.

Ba'zan she'rlar, maqola va ertaklar yozib turaman. Ularni sevimli gazetam «Tong yulduzi» tahririyatiga olib bordim. Ha, aytgancha, qishloqdagi bobojonim va buvijonimni ham bayram bilan tabriklab keldik. Xullas, ta'til mehnat-la tatir ekan.

Shohsanam NURMATOVA,
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi 60 - maktabning 4-sinf o'quvchisi.

Aziz bolalar, e'tibor qilgan bo'lsangiz, har bir maktab, tuman va viloyat o'quvchilarining xat-xabarlarini jamlab, sahifa qilish an'anamizga aylangan. Bu sahifamizda alfavit asosida - andijonlik o'quvchilarning yozishmalarini yoritib ekanmiz, navbatni buxorolik bolalarga berib, ulardan ko'plab xat-xabarlar va ijodiy ishlaridan namunalar kutib qolamiz.

MAQTOV KIMGA YOQMAYDI?...

Litseyimiz o'quvchilari temir-tersaklar to'plash va topshirish bo'yicha hammani lol qoldirib, ko'zlangan rejani ikki kun ichida ado etdilar. Biz davlatga 3.600 kilogramm temir-tersaklar topshirdik. Ayniqsa, I.Rahimova rahbarlik qilayotgan 8-«A» sinf, K.Tojiboyev rahbarlik qilayotgan 8-«B» sinf o'quvchilari bu ishda peshqadamlik qilishdi. Litseyimiz o'quvchilari bundan boshqa tashkiliy ishlarda ham faol qatnashib, litseyimiz sharafigini yanada ko'tarish niyatidalar. Axir maqto'v - bizga qanot-da.


Mahliyo ZOKIROVA, 16-litsey maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi.

ERTAKCHI BOBONING ERTAK KITABI

Tog'lar bag'rida Mirishkor degan qishloq bo'lgan ekan. Qishloq ahli bir-birlari bilan ahil yashasharkan. Qishloq oqsoqoli Qosim boboni bolalar juda yaxshi ko'rishar ekan. Chunki bobo bolalarni to'plab ko'plab ertaklar aytib berarkan-da. Ertakchi boboning Qodir degan nevarasi bo'lib, u bobosining uyidan uzoqda yashagani uchun u yerga har hafta borib turar ekan. Bir kuni Qodir tug'ilgan kuniga bobosini taklif qilibdi. Bobosi borishga va'da beribdi. Nihoyat, orziqib kutilgan kun kelibdi. Ammo Qosim bobodan hadeganda darak yo'q emish. Oradan ancha vaqt o'tgach, eshik taqillabdi va bobo qo'lidagi chiroyli qog'ozga o'ralgan sovg'ani Qodirga tutqazibdi. Qodir bobosining kelganidan xursand bo'lib, uni mahkam quchoqlab olibdi. So'ng, sovg'ani ochib qarasa, o'zining yaxshi ko'rgan «Ertaklar kitobi» ekan. Qodir juda xursand bo'lib ketibdi. Hamma jamul-jam bo'lgach, Qodir: -Bobojon, sovg'a qilgan kitobingizdan birorta ertakni o'qib bering, -deb iltimos qilibdi. Bobo kitobdagi «Uch og'a-inilar» ertagini o'qib beribdi. Ertak bolalarga juda yoqib qolibdi. Shu kuni bobo ertak o'qib, bolalar esa uni tinglab, kech bo'lganini ham sezmay qolishibdi. Hamma bolalar esa bizning bobomiz ham bizga kitob sovg'a qilishsa qanday yaxshi bo'lardi, deb havas qilibdi.

Mohinur USMONOVA,

Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi 1-o'rta maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi.



TARIXGA QIZIQISH QACHON ORTADI?

Bizning litseyimizda turli xil tadbirlar o'tkazish, sayohatlar uyushtirib turish an'anaga aylanib qolgan. Bu albatta litseyimiz direktori A. Qirg'izboyev va mehribon ustozlarimizning mehnati samarasidir. Litseyimizda turli to'garaklar muntazam ishlab turibdi. Yaqinda tarix fani to'garagi a'zolari bargalikka aql-zakovati, shijoati bilan dunyoni lol qoldirgan Amir Temur muzeyiga, Qo'qon shahridagi Xon Arki va Farg'ona viloyatidagi O'lkashunoslik muzeyiga sayohat uyushtirdik. Bu muzey va Ark bizda katta taassurot qoldirdi. Sayohatda bizga rahbarlik qilgan Muqaddas opa Ergasheva muzey eksponatlari ta'rifi va tarixini batafsil aytib berdilar. Sayohatdan qaytgach, litseyimizdagi boshqa o'quvchilarga bu haqda to'lqinlanib gapirib berdik. Bizdan sayohat taassurotlarini eshitgan bu o'quvchilarning ham tarix faniga qiziqishlari yanada ortgan bo'lsa, ajabmas.

Gulhayo XOLMATOVA,

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi

16-litsey-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi.

O'ZBEK ASKAR — MARD O'G'LO'N

O'z xalqini asraydi,
O'zbek askar-mard o'g'lon.
Qalqon qilib ko'ksini,
Kerak bo'lsa berib jon.

Kechalari uxlamay,
Sergak turar postida.
Qo'llarida avtomat,
Harbiy forma ustida.

Yo'latmaydi yovlarni,
Vatanning tuprog'iga.
Dushman holi tang bo'lar,
Kirsar gar qo'rg'oniga.

Maqsadi, o'y-xayoli,
Yurtda tinchlik bo'lsa bas.
O'z xalqining shodligin,
Ko'rib tursa har nafas.

Katta bo'lsak bizlar ham,
Botir askar bo'lamiz,
Xizmat qilib Vatanga,
Doim sodiq bo'lamiz.

Asror O'TANOV,

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi

28-o'rta maktabning
5-«A» sinf o'quvchisi.

USTOZLAR HAM O'QIYDI

Litseyimiz jamoasidagi o'qituvchilar o'zlarining siyosiy va iqtisodiy bilimlarini oshirish maqsadida har seshanba kuni o'quv mashg'ulotlari o'tkazishadi. Mashg'ulotlarda O'zbekiston Oliy Majlisi quyi palatasi va Xalq deputatlari shahar, tuman, qishloq kengashlarida bo'ladigan saylovlar, «Ta'lim to'g'risidagi» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risidagi» qonunlarni o'rganishadi. Navbatdagi mashg'ulotlarda ta'limga oid hujjatlar, qarorlar, farmoyishlar hamda Prezidentimizning qator asarlarini o'rganish rejalashtirilgan.

Bunday o'quv mashg'ulotlarini o'quvchilar o'rtasida olib borish ham yo'lga qo'yilgan. Har kuni dars oldidan o'tkaziladigan qisqa yig'ilishda ularning siyosiy ongilarini oshirish maqsadida saylovlar, ikki palatali parlamentlar, siyosiy partiyalar va ularning olib borayotgan ishlari haqida qisqa ma'ruzalar qilinmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda litseyimizning direktor o'rinbosari Oqibatxon Rahmonova, tarix fani muallimasi Muqaddas opa Ergashevalarning ishlari tahsinga loyiq.

M.BOBOJONOVA,

16-litsey maktabining 11-sinf o'quvchisi.

VAFAN

Bobolarim qoni singgan
Hur diyorsan.

Momolarim ko'zga surgan
Gulbahorsan.

Farzandlaring Amir Temur,
Boburmirzo,

Ulug'bekdek farzandlarga
vafodorsan.

Cho'lponlaring parvonadir
Chirog'ingda,

Kuydi Mashrab, kuydi Furqat
Firog'ingda.

Endi meni bolam degil,
Bolang bo'lay

Aslo sendan tonib yurmay
Yirog'ingda.

Sening uchun jon berishga
Fayyor turgan

Farzandlaring o'sayotir
Quchog'ingda.

Gulziyo JUMANOVA,
16-litsey maktabning 10-sinf o'quvchisi.

SUVDA KECHGAN HAVOI

Okeanlar-u dengizda,
Kuch-qudrati tengsizda.
Ne bir anhor, daryoda,
Hayot jo'shgan, dunyoda.
Shavqatli-yu, beshafqat,
Vashar turfa, xil jonzot.
Har mavsumda baliqlar,
Qo'yar sonsiz urug'lar...
Bir-biridan ajoyib,
Vayrab-yashnab, ko'payib,
Quvna baliq-jujuqlar,
Suvliktarni ulug'lar.
Bunday boqsang hotirjam,
Go'yo yo'qday tashvish-g'am.
Hayotlari jo'ngina,
Furmush kechar jimgina.
Chig'anoqlar ichra dur,
Bag'ishlar olam huzur.
Fantarida tangasi,
Xizmatida yangasi.
Zog'ora-yu taqqatar,
O'ynab-yayrab zavq olar,
Do'ng peshona salanglab,
Ulon baliq bilanglab,
Bir-birining ko'zicha,
Umr ko'rar o'zicha.
Cho'rtan burab mo'ylovin,
Fo'kib solar siylovin.
Furfa baliq aymoqlar
Do'stlarini ardoqlar.
Ajab, dengiz sigiri,

Suvda yurar yugurib.
Definlar-chi, har qachon,
Odamlarga mehribon.
Gar duch ketsa biron xavf,
Xatarni tez qitar daf.
Okeanda Akula
Suzar solib g'ulg'ula.
Go'yo suvosti kema-
Kit haybatli Vahima.
Ammo Sakkiz oyog'lar,
G'addor, yovuz siyoqlar
Bo'lmoq istar hukmron,
Atrofga solar qiron.
Bahri ummon ichida-
Silliq jahon ichida.
Bordir o'zgarmas qonun,
Ojizlar umri zabun.
Kuchsizlarni yovuzlar,
Yutar naq yalmog'izlar.
Kichiklarni yiriklar,
Vamlab g'ajir tiriklay.
Osmon yiroq, Yer qattiq.
Suvda azob, jabr ortiq.
Hech kas qochib ketolmas,
Ko'kka uchib yetolmas.
Sag'al chiqsa qirg'oqqa,
Nafasi tinar taqqa!
Hali emas hammasi,
Bor yana muammosi!
Bu sir ma'lum olamga,
Aloqador odamga.

Okeanlar-u ummonga,
Ulkan to'rlar har yonga.
Lahza sayin tashlanar,
Har yonda ov boshalanar.
Brokonertlar-Isrofgar.
Asl omni etib xor.
Ichlarini yorishar,
Uvildirig'in olishar.
Ammo ulkan kemalar,
Ezgu ishni chamalar.
Furfa baliq g'amlanar,
Dudlanar-u dimlanar.
Ko'p baraka-qutlari,
Shokoladday etlari.
Keltirib ob-tobiga,
Bo'ktirilib yog'iga,
Faom uchun yo'llanar,
Shifolikka qo'llanar.
Bu luqmas hatolni,
Yengit hazni-bematolni
Hamma birday yoqtirar.
Bolakaylar xush ko'rar,
Ulkan suvlar tomonga,
Okean-u ummonga,
Shu sababli odamlar,
Serqatnov, serqadamlar.
Baliqlarning taqdirin,
Sog'tom asrash tadbirin,
O'ylab ko'rib insontar,
Varatadi imkontar.
Har yon toza bo'lsin der,



Suvda maza bo'lsin der.
Yashnab kulsin keng olam,
Baliqlar bo'lsin sog'lom.
Urug'tanish mavsumi-
Umrlarin mazmuni.
Biri-biridan asil-
Dunyoga ketar nast.
Yoqimli va ajoyib,
Ketar tezda ko'payib.
Naq qalashib ustma-ust
Ulg'ayadi qasdma-qasd.
Yetganda ayni fursat,
Aqlni ishlatmoq shart!
Baliqlarni tutmasa,
Etga hayot eltmasa,
Toshib dengizlar suvi,
Chiqadi ishning chuvi...

Bu voqea 15 yil avval Nyu-Yorkka uyushtirilgan kema sayohatida bo'lib o'tgan edi. O'sha sayohat hayotimdagi eng unutilmas sayohatlardan biri bo'lgan edi. Bir kuni ertalab kema sardori yonimga kelib, shunday dedi:

-Kecha kechqurun menga g'alati ovozlari eshitildi. Men sira uxlay olmadim. O'sha ovoz mening qulog'imga «Shimoli-g'arbiga suzinglar», deb tinmay takrorlard. O'sha yo'nalish bo'yicha suzib ko'rsak nima deysiz?

-Meni kechirasiz-u o'rtoq kapitan, - dedim men, -

CHIPPAKKA CHIQQAN REKORD

o'ylashimcha, kecha tunda siz juda ko'p ovqatlangan edingiz, shuning uchun uxlayolmagan bo'lsangiz kerak.

Kema sardori tutoqib ketdi: - Birinchidan, men kecha ko'p ovqatlanganim yo'q, ikkinchidan, menga o'sha ovoz uch marotaba eshitildi, - dedi-da, kema boshqaruvchilariga shimoli-sharqqa suzishni buyurdi.

Ertasi kuni kema boshqaruvchilaridan biri dengizda qora rangdagi noma'lum bir jismni payqab qoldi. Shunda kema sardori ko'zoynak ortidan boqib dedi:

-Kichkinagina qayiqcha-ku, ichida odam borgan o'xshaydi.

Tengdoshingiz Asilbek SOLIYEV, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 138-maktabning 2-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U rasmlar chizishga qiziqadi. Gullarni, qushlarni, turli hayvonlarning rasmini chizish joni-dili. Bugun tahririyatimizga chizib yuborgan rasmini «Tinchlik osmonidagi parvoz» deya nomlabdi.



- Qayiqda uxlab yotganimda meni bu kemaga sizlar olib o'tdingizmi?

Albatta, - javob qildi kema sardori, - siz o'sha kichik qayiqchada cho'kib ketishni istamasangiz kerak axir?


-Menga qarang, mening ismim Uilson, kema sardoriman. Axir men Nyu-Yorkdan Liverpulgacha kichik qayiqchada suzib, rekord qo'yish niyatida suzib ketayotgan edim. Hammasini chippakka chiqaribsiz-ku!!!

Inglizchadan Gavhar SHOMANSUROVA tarjimasini.

14 yanvar - Vatan himoyachilari kuni

MEN OFITSER BO'LAMAN

Toshkent shahar Hamza tumanidagi 153-maktabning 9-«V» sinf o'quvchilari 14 yanvar — Vatan himoyachilari kuni bayramini munosib kutib olishga harakat qilishyapti. Bu kunga bag'ishlab, turli tadbirlarda sport musobaqalarida faol ishtirok etishyapti.



Ha, aytmoqchi bu o'quvchilar harbiy-sport yo'nalishi bo'yicha ta'lim-tarbiya olishadi. Sinf rahbari Sadolat RO'ZIYEVNA, harbiy yo'nalish bo'yicha maktab rahbari Natalya NIKOLAYEVNA, dzyu-do sport turi bo'yicha murabbiy Vladimir IVANOVICH, qo'l jangi rahbari Rinat, Rustam va boshqa murabbiylar o'z bilim va mahoratlarini bolalarga o'rgatib kelmoqdalar.

Sinfdagi 25 nafar barcha o'quvchilar kelajakda mustaqil yurtimizga munosib farzand bo'lishga intilmoqdalar. Ularning orzusi bitta: ofitser bo'lish.

Alisher ABDULLAJONOV.



ULAR TETIK BOLALAR

Poytaxtimizning Sirg'ali tumani Chosh-tepa mahallasida bolajonlarning sevimli maskani bor. Bu maskanning nomi «Shodlik» deyiladi. 1996 yil yanvar oyida foydalanishga topshirilgan ta'lim maskanida 400 nafar bolajonlar kamol topib ulg'aymoqdalar. Ularga mohir, bilimdon bog'cha opalari



«Uchinchi ming yillikning bolasi» dasturiga asoslanib, ta'lim-tarbiya bermoqdalar.

Muassasining asosiy vazifasi

bolalarga yo'l harakati qoidalarini o'rgatishdir. Ammo chaqqon tarbiyachilar, kerakli muallimlar doimo ular bilan birga. Eng asosiysi bu ta'lim muassasida bolalarning salomatligi uchun barcha shart - sharoitlarga havas qilasiz.

Bu yerda Taekvondo, Milliy raqs kabi mashg'ulotlarda tarbiyalanuvchilar yayrab-yayrab o'ynaydilar. Fitobar, fizioterapiya xonalarida shirindan - shakar bolajonlar sog'ligini mustahkamlaydilar. Bolalarning bugungi tetikligi, mardligi xuddi shunday kunlardan boshlanadi. Shuning uchun ular yurtimizning baxtiyor farzandlaridir.



ASALCHI amaki.

Ko'p insonlar salomatligi qo'ldan ketgandagina sog'ligini o'ylab qoladi. Biz hamisha BAXT tomon intilib yashaymiz. Aslida ham Baxt so'zi salomatligimiz samarasidir.

BAXT TOMON INTILIB

Ota-onangiz sizlarning epchil, qo'rqmas, shijoatli qilib tarbiyalashga doimo harakat qiladi. Chunki sog'lom odam issiqqa ham, sovuqqa ham bardosh beradi, uning ruhi tetik bo'ladi. Jisman kasal odamda ba'zan ruhsizlik, asabiylik holatlarini ko'ramiz. Kasalni davolashdan ko'ra, uning oldini olish osonroqdir. Buning uchun bolalikdan ma'lum tartibda badantarbiya mashqlarini bajarish zarur bo'ladi.

Badantarbiya mashqlari turli uslubiy qo'llanmalarda



berilgan, ammo ularda ko'proq mashqlarning oddiy amaliy qismlariga e'tibor berilgan. Biz bugun e'tiboringizni mashqlarning nazariy jihatlariga qaratmoqchimiz. Ya'ni, har bir inson tanasi va unda kechayotgan jarayonlar haqida kerakli ma'lumotga ega bo'lsa, o'z organizmi bilan qiziqib ko'rsa,

ko'p narsa oydinlashadi. Shunda har kim ongli ravishda salomatligi va uni saqlash uchun harakat qilgan bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda sog'lomlashtirish mexanizmini ko'rib chiqsak. Ma'lumki, hayot va o'lim orasidagi masofa — bu bizning nafas

olishimizdir. Inson burun orqali havodan kislorod oladi, kislorod o'pkaga tushib, qonga o'tadi. U tufayli qon boyiydi. Qon kerakli ozuqalarni muskullarga yetkazib, ularni mustahkamlaydi. Kuchli muskullar umurtqa pog'onasi uchun tayanch vazifasini o'taydi. Demak, ko'ryapsizmi, oddiy nafas olishda quyidagi jarayonlar kuzatiladi: Nafas olish bilan tana oziqlanadi, ya'ni organizmga kerakli moddalar tarqaladi. Bu foydali moddalar tananing har bir hujayrasiga kirib borishi sizning to'g'ri nafas olishingizga bog'liq.

Shuningdek, nafas organizmga quvvat beradi, tanadagi kislorod va limfa oqimini nazorat qiladi.

LIMFA NIMA?

Kislorodni bilamiz, limfa nima unda? Limfa - bu qonga o'xshagan suyuqlik, u oq qon tanachalaridan hosil bo'lgan. Limfa o'z navbatida organizmni turli mikroblardan himoyalaydi. U tanamizdagi 75 trillion hujayraning har birini tozalaydi.

Bu shunday kechadi: yurak arteriyaga qonni siqib chiqaradi. U yerdan qon mayda qon tomirlari - kapillyarlarga o'tadi. Xuddi shu yerda limfalar zaharli moddalarni (toksinlarni) yuvib chiqaradi.



Masalan,

agar odamlar o'zlari yashab turgan xonalarni vaqtida tozalab, chiqindilarni tez-tez olib chiqib tashlamasalar, tasavvur qiling nima bo'ladi? Atrofdan badbo'y hid keladi, suvarak, kalamush, pashsha-chivinlar paydo bo'ladi. Xuddi shu kabi limfa ham organizmdagi toksinlarni yuvmasa, zaharli shlaklar yig'indisi paydo bo'ladi. Mana, limfa qanday zarur vazifani bajaradi. Jismoniy mashqlar esa limfa faoliyatini 15 marta oshiradi. Tananing to'g'ri faoliyat ko'rsatishi ikki omilga

bog'liq - yaxshi qon aylanishi va nervlarning signal yuborishiga. Bu omillardan birortasining faoliyati susaysa, hujayra buzilishi sodir bo'ladi. Agar gavda egik bo'lsa, tanadagi asab tolalari siqilib, muskullar qisilib qoladi.

Natijada qon aylanishi qiyinlashib, kislorod ta'minoti yomonlashadi. Bu yerda gavda deganda umurtqa pog'onasining holati nazarda tutilyapti. Ma'lumki, umurtqa pog'onasi 26 ta umurtqa suyagidan iborat. Ularning har biri oralig'idan - orqa miyadan keladigan tomirlar va asab tolalari o'tadi. Ular o'z navbatida butun tanani oziqlantiradi. Agar siz bukchayib yoki noqulay holatda o'tirsangiz, umurtqadan o'tadigan asab tolalari va tomirlari siqilib, nerv impulslarini yuborish yo'li qiyinlashadi. Noto'g'ri rivojlangan gavda kasallikka beriluvchan bo'ladi. Bukilgan gavda o'pkani kislorod bilan to'liq ta'minlay olmaydi. Natijada o'pka, jigar, oshqozon-ichak faoliyati sustlashadi. Qorin muskullari bo'shashib, cho'zilishga moyil bo'ladi.

Shuning uchun, siz aziz o'quvchilardan ham maktabga kelganda partada, uyda stulda qaddingizni rostlab to'g'ri o'tirish, to'g'ri turish talab etiladi. Ertalabki piyoda yurish tanangizga rohat bag'ishlaydi. O'zingizni yengil his qilasiz. Qon tomirlaringiz faoliyati yaxshilanadi. Yurakka yaxshi bo'ladi. Har qanday yukni yerdan ko'tarayotganda uning og'irligini umurtqa pog'onasiga tushirmay, oyoq yordamida ko'tarish lozim. Bu holatda yuk og'irligi gavdaga kam ta'sir qiladi. Muhimi, umurtqa dastak vazifasini hosil qilmasligi kerak. Ana shunda siz tanangizni to'g'ri tarbiya qilgan, o'z sog'ligingiz uchun hissa qo'shgan bo'lasiz.

Klara SHOKIRJONOVA, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Kechagina murabbiy quvonchi eng baxtli kunlar xotirasiga aylandi. Chunki uning umidli, iste'dodli shogirdlari Buxoroda bo'lib o'tgan Bahovuddin Naqshbandiyning 685 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan Toshkent shahar Ochiq chempionatidan g'olib bo'lib qaytdilar. Chempionat musobaqalarida Dilshod Yusupov va Fozil

BUXORODAN MEDAL BILAN...

Sobirovga 1- o'rin, Dilmurod Yusupovga esa 2- o'rin nasib etdi.

Tajribali shogirdlarining yutuqlaridan quvongan murabbiy Osiyo chempionati sovrindori, ikki karra O'zbekiston chempioni, qora belbog' sohibi Komil Odilov shunday deydi:

-2000 yildan buyon shu maktabda faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lsam, har bir bolaning sportga bo'lgan mehridan quvonaman. Yaqinda yurtimizda bo'lib o'tgan Osiyo chempionatida ham shogirdlarim faxrli o'rnlarni egallashdi. Albatta bugungi yutuqlarimiz zamiri bizni nufuzli musobaqalarda qatnashish uchun katta imkoniyat eshigini ochmoqda. Bir so'z bilan g'ururlanib ayta olamanki, shogirdlardan ko'ngil to'q.

Dilnoza OMONBOYEVA,

Toshkent tumani, 4- o'rta maktabning 10-«A» maxsus sinf o'quvchisi.

TEST SAVOLLARI

1. O'zbekiston Karate federatsiyasining tashkil topgan vaqti?

- A) 1996 yil, 1 sentabr;
- B) 1996 yil, 11 sentabr;
- D) 1997 yil, 12 sentabr;
- E) 1998 yil 21 oktabr.

2. O'zbekiston Karate federatsiyasi prezidenti kim?

- A) Po'lat Usmonov;
- B) Burxon Rahmonov;
- D) Nurxon Nafasov;
- E) Rufat Risqiyev.

3. Karate qaysi davlat sport turiga kiradi?

- A) Xitoy;
- B) Janubiy Koreya;
- D) Yaponiya;
- E) O'zbekiston.

4. Quyidagi terminlardan karatega xos so'zni toping.

- A) Ring;
- B) Kata;
- D) Darvoza;
- E) Charm qo'lqop.

5. Yurtimizning mashhur karate yulduzlari nomini aniqlang?

- A) Muhammadqodir Abdullayev;
- B) Erkin Quttiboyev;
- D) Azamat Ali Qalandarov;
- E) O'tkir Haydarov.

6. Karatechilar tatamida qanday rangdagi liboslarni kiyadi?

- A) Oq;
- B) Qizil;
- D) Yashil;
- E) Qora.

Tuzuvchi:

Doston YIGITALIYEV, Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 1- ixtisoslashgan maktab litseyining 5- sinf o'quvchisi.

- Oyjoni, meni qarang, daraxtning uchiga chiqib oldim. Xuddi olmaxondek, -dedi Sodiqjon azim daraxtning shoxlariga tirmasharkan. - Daraxtning uchida yong'oq qolib ketibdi. Shuni olaman.

- Tush bolam, xudo ko'rsatmasin, yiqilib tushmagin, pastga tusha qol endi, -dedi Xolida opa.

Xolida opa bittagina o'g'li Sodiqjonni yer-u ko'kka ishonmas, unga hatto shamolni ham ravo ko'rmasdi.

- Sodiqjon, tusha qol bolam, mana senga yong'oq, qancha kerak bo'lsa beraman.

Xolida opaning gapi og'zida qoldi. Birdan qarsillagan ovoz keldi. Hammasi bir zumda sodir bo'ldi. Xolida opa pastga xuddi o'qdek uchib tushayotgan bolasini ko'rdi-yu, ko'zlarining oldi qorong'ulashib ketdi...

-Xolida, onasi ko'zingni och, -degan ovozdan arang o'ziga kelayotgan Xolida opa zo'rg'agina Sodiqjon, dedi.

-Unga hech narsa qilmabdi, oyog'i sinibdi, xolos, yaxshi bo'lib ketadi, oyisi, o'zingni qo'lga ol, -dedi Xurshid aka.

Oradan bir necha kun o'tgach, ular kasalxonadan chiqishdi. Sodiqjonni qo'ltiqayoqda ko'rgan Xolida opaning yuragi yana uvishdi. Uning ranglari siniqib ketgan, kiyimlari ham osilib turardi. Joni omon bo'lsa bas, hammasi yaxshi bo'lib ketadi, ishontirdi o'zini ona.

Lekin hammasi yaxshi bo'lib ketmadi. Shifokorlar Sodiqjonni bir yarim oy deganda qaytadan ko'rikdan o'tkazishdi.

- Toz suyaklari yaxshi bitmagan, buning ustiga, umurtqa pog'onasi qattiq lat yegan. O'g'lingiz bir umrga nogiron bo'lib qolishi mumkin, hamma narsaga tayyor turing opa, biz qo'limizdan kelganini qildik...

Doktorning bu gaplaridan Xolida opa o'zini yo'qotib qo'ydi. Nahotki, yakka-yu yagona o'g'li nogiron bo'lib qolsa? Uni hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagan-ku. Xolida opa shu o'ylar bilan uyiga kirib kelarkan, hovlisida turgan bir tup yong'oq ko'zlariga yomon ko'rinib ketdi.

UMIDNING RO'YOBGA CHIQISHI

Hammasiga shu aybdor, degan o'y bilan uni bolta bilan chopa boshladi. Hovlida duk-duk ovozni eshitgan Xurshid aka ichkaridan yugurib chiqdi-da: -Onasi, qo'y, o'zingni asra, bo'lgancha bo'lar. Mayli, peshonadagini ko'ramiz, -dedi.

Bir kuni mahalla oqsoqoli Nurmat aka eshikdan kirib keldilar. Ularning orqalarida mahalla faollari ham bor edi.

- Xurshid, ho Xurshid, mana sizlarga mahalladan hadya, toychoq zerikib qolmasin, ko'chalarga bemalol o'zi chiqaveradi, -deya nogironlar aravachasini ko'rsatdi. Xolida opaning yuragi yana pora-pora bo'ldi. Nahotki, yugurib, chopqillab yurgan farzandi birdaniga aravachada o'tirib qolishi kerak? Qayerdanam shu yong'oqqa tirmashding bolam, deya Sodiqjonni quchoqlab yig'lay boshladi. Buni ko'rgan Xurshid aka yana ularni tinchlantirishga shoshildi.

Sodiqjon endi aravacha bilan ko'chaga chiqar, bolalarning o'yinlarini tomosha qilib, hovlida bemalol o'zi arava bilan yura olardi.

Bir kuni ko'cha to'ldirib futbol o'ynayotgan bolalarni tomosha qilib o'tirgan Sodiqjonning oldiga to'p uchib keldi. U ko'ptokni olaman, deb rosa urindi. Lekin ololmadi. Ko'ngli buzilib, ko'zlariga yosh quyildi. Asta-sekin aravachasini

ortiga burib, uyiga kirib ketayotgan edi, bir bolakay kelib:

-Aravachangda men ham sayr qilay, -dedi. Ko'zlari yonib turgan bolakay bu aravacha sayr uchun emas, balki nogironlar uchun yaratilganini

qayerdanam bilsin?

(Hikoya)

Sodiqjonning bir alamiga o'n alam qo'shildi. Yurishga harakat qilaman, dedi u o'ziga-o'zi. Xonasini ichkaridan qulflab olib turmoqchi bo'ldi, lekin yiqilib tushdi. O'g'lining xonasidagi do'pillagan ovozni eshitgan dadasi eshikni buzib kirib, Sodiqjonni joyiga o'tqazdi.

- Senga turish mumkinmas, bolam, bir kuni kelib yurib ketarsan, lekin hozir turma, singan joylaring yaxshi bitmagan... Dadasining ovozi allanechuk titrab chiqayotganini eshitgan Sodiqjon ho'ngrab yig'lab yubordi.

-Meni kechiring, dada, sizga yordamlashadigan, katta bo'lib qolgan vaqtimda nogiron bo'lib qoldim.

Bu gaplarni eshitgan Xurshid aka talmovsirab qoldi. Shu bir necha oylar Sodiqjonni ulg'aytirib qo'ygan edi. Sodiqjon kattalardek fikr yuritadigan, taqdirga tan bergan odamdek, gohida bir nuqtadan ko'zini uzmay qolardi. Oradan ikki yil o'tdi. Shifokorlar Sodiqjonni qayta ko'rikdan o'tkazib, bosh chayqashdi. Endi o'g'lining yurib ketishidan tamoman umidini uzgan ota-ona yana tushkunlikka tushdi. Sodiqjonning sinfdoshlari 9-sinfni

bitirishdi. Kimdir litseyga,

kimdir kollejga o'qishga kirdi. Sodiqjon uzzukun xonasiga qamalib olar, endi ko'chaga chiqish, bolalarni tomosha qilish ham uning ko'ngliga tekkan edi. Bir kuni Xolida opa: - Sodiqjon, ikki kundan keyin tug'ilgan kuning. Kel, sinfdoshlaringni chaqirib bayram qilamiz, -dedi.

Sodiqjon rozi bo'ldi. O'g'lining tug'ilgan kunini nishonlash taraddudida yugurib-yelgan Xolida opa ich-ichidan suyunib ketar, keyingi vaqtlarda odamovi bo'lib qolgan o'g'lining nega darrovgina ko'nganiga hali ham ishonmasdi. Nihoyat, kutilgan kun keldi. Bayramona qilib bezatilgan katta xonaga mehmonlar kela boshlashdi. Sinfdoshlarini ko'rgan Sodiqjonning kayfiyati ko'tarilib ketdi. Ular allamahalgacha suhbatlashib o'tirishdi.

O'sha kundan keyin Sodiqjon yurishga harakat qila boshladi. U qancha qiynalmasin, oyoqlari unga bo'ysunmasdi. Yiqilsa, yana turib, qayta harakat qilardi. U negadir yurishiga ishonardi. Keyingi yilga sinfdoshlari 11- sinfni tugatishadi. Oxirgi qo'ng'iroqqa o'z oyoqlari bilan yurib borish istagi Sodiqjonga umid, kuch bag'ishlardi.


Bir kuni ishdan horib kelgan Xolida opa bilan Xurshid aka hovli o'rtasida bo'sh turgan aravachani ko'rib, qo'rqib ketishdi. Hovlini zir yugurib, o'g'lini axtarishdi. Shu payt uyning eshigi ochildi. Ota-ona jon holatda o'sha tomonga qarashdi. Ostonada esa Sodiqjon oyoqlari qaltiragan holda eshikka suyalib, ularga jilmayib turardi...

Ozoda TURSUNBOYEVA.



Insonlarga nur-u ziyo tarqatuvchi muqaddas maskan bu maktab bo'lsa, oq-u qorani ajratishga o'rgatuvchi, oilaga, ona-Vatanga, do'st-u birodarlarga mehr uyg'otuvchi inson ustozdir. Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'yib, katta hayot yo'li sari odimlayotgan bolajonlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari

qilamiz hamda qadimiy hunarmandchilгимiz sirlarini o'rganamiz. Bolajonlarning qiziqishi bir olam. Ular qayta-qayta hunarmand ustalarining ishlagan bejirim



HUNARMANDLAR MAKONISAN, G'JDUVON

zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Bizning G'jduvon shahrimiz hunarmandlar makoni. Sinfimiz o'quvchilari bilan har shanba kunlari «ona yurtim jonu ta'nim», degan tarbiyaviy soat darslari o'tkazamiz. Shu dars davomida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xonadonlariga, shahrimizdagi qadimiy yodgorliklar, Sadridin Ayniy uy muzeyiga, hunarmandlar ustaxonalariga borib tomosha



san'at namunalarini ko'rib, murg'ak qalblarida cheksiz mehr uyg'onadi. Ayniqsa, pichoq yasovchi ustalarining sulolasi Islom aka Ikromovning, kulolchi usta Ibodulla aka Narzullayev, zardo'z Mohira opa Umarovalar o'quvchilarimizning haqiqiy ustozlariga aylanib qolishgan. Biz tarbiyalayotgan bolalar kelajakda yurtimiz ertasi, uning munosib vorislari bo'lib voyaga yetsa, shuning o'zi muallim uchun eng oliy baxtdir.

Salomat LUTFULLAYEVA,
Buxoro viloyati, G'jduvon shahridagi
46-maktab o'qituvchisi.

KOMIL INSON BO'LAYLIK

Qadr don maktab va qadr don do'stlar bilan bir umrga xayrlashib, litseyga o'qishga kirdim. Litsey ham tezda men uchun qadr don bo'lib, yangi ustozlar va yangi do'stlar orttirib, a'lo baholarda o'qishga harakat qilayapman. Litseyda fanlar chuqur o'tilishi bilan birga yana qo'shimcha qilib haydovchi guvohnomasi ham berilar ekan. Litsey direktori Blyaxer Boris Yakovlevich litsey yana ham rivojlanishi uchun ko'p yaxshi ishlar qilyaptilar. Yangi «Pentium 4» kompyuterlari, sport zalimiz uchun anjomlari olib berdilar. Litseyimizda juda ham ko'p to'garaklar bizlarga kasb-hunar o'rgatiladi. O'tgan yil shu litseyi bitirgan 84 foiz o'quvchi Oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan. Bizning sinf rahbarimiz Umida opa Mahmudovna biz bilan tinmay shug'ullanadilar. Kelajakda yetuk insonlar bo'lib yetishishimizda biz yoshlar ham tinmay bilim olib, yurtimizni gullab yashnashi va kelajagi uchun sog'lom fikrlaydigan, sog'lom turmush tarzida yashaydigan komil insonlar bo'lib, ota-onamiz, ustozlarimiz va yurtboshimizning ishonchini oqlashimiz kerak.



Farhod SHORAHIMOV,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi Kasb-hunarga
yo'naltirish va profilli mehnat ta'limiga
ixtisoslashtirilgan litseyning talabasi.

2. KO'PNI

KO'RGAN MU-
ALLIM

Ikkinchi chorakdan boshlab tabiiy geografiya fanidan saboq o'tadigan bo'ldik. Sinf rahbarimiz taomilga ko'ra yangi o'qituvchini boshlab kirdi. U kishi dum-dumaloq — kalta bo'y, habashga o'xshash qorachadan kelgan, jingalak soch, negadir nafas olsa, xirillaganday ovoz eshitilib, boshi bilinar-bilinmas silkinib qo'yadigan, yapaloq yuzlari cho'tir kishi edi. Yoshi qirqlar atrofida bo'lsa kerak.

Hammamiz o'rnimizdan turdik.

— Sunnat Aliyevich Ayupov, — deya tanishtira boshladi aya, — Toshkentday poytaxt shahardan, SAGUni bitirib, sizlarga dars bergani keldilar. Bilasizlarmi, «SAGU» nima? — Nafiqova bir lahza jimib qolib, so'ng alohida ohang bilan ta'kidladi, — «SAGU» — eng katta universitet! U yerda har kim ham o'qiyvermaydi!..

Yangi muallim bir qo'lidagi yarim quloqchaga chiqadigan yaltiroq tayoqni stol ustiga qo'yib, shlyapasini yechdi, qulluq deganday barchamizga ta'zim etib qo'ydi. Uning bu qiligi sirk m a s x a r a b v o z i n i n g tomoshabinlarga qarata qilgan «salom»ga o'xshab

ketardi.

Sunnat Aliyevichda ham o'ziga yarasha xislatlar mavjudligi darrov ayon bo'ldi. Darvoqe, buni o'sha kunning o'zidayoq hammaga ma'lum etib, shunday dedi:

— Ha, biz «SAGU»ni, ya'ni O'rta Osiyo Davlat Universitetini, yana boshqacharoq qilib aytganda, o'sha qutlug' dargohni a'lo baholar bilan bitirganmiz. Shuningdek, katta-kichik, — birdan Sunnat Aliyevich so'zlashdan to'xtadi, kaftini peshonasiga «soyabon» qildi, xuddi olislarga tikilayotganday orqa partalarda o'tirganlarga qarab, qoshlarini chimirdi, — voy-bo'y, o'nqir-cho'nqir, past-u baland, chindanam «moshxo'rda» ekansizlar-ku... Xullas, katta-yu kichik siz zotlarga shuni ma'lum qilamizki, bizning dars o'tishda o'z metodikamiz bor, — u negadir «miz»lab ko'pchilik nomidan gapirardi, — ya'ni bu metodika shundan iboratki, darsning chorak qismini «Savol-javob sabog'i»ga ajratamiz. Yaxshilab o'ylab ko'ring: savolni kim ko'proq berishi mumkin?! — domla bir lahza hammaga tikilgan jimib turdi-da, so'ng davom etdi. — Bilimga qiziqqan, befarq bo'lmagan, mushohadasi keng bolalar! Javobni kim qaytarishi mumkin?! — Sunnat Aliyevich qoshlarini chimirib savol nazari bilan qaradi. — Mana, biz! — deya ko'kragiga urib, so'ziga

Muso Toshmuhammad o'g'li OYBEK tavalludining 100 yilligiga

yakun yasadi. — Savolning salmog'iga qarab, baho qo'yiladi. Endi darsni boshlaymiz, — domla kostyumining chap yengini tirsagigacha tortib, soatiga qarab oldi, orqada o'tirgan kimlardir ogohlantirdi, — Qo'llar ko'tarilmasin. «Saboq soati»ga hali vaqt bor!

Shundan keyin doska yuziga ko'rpaday qilib (o'zi ham juda katta edi-da!) «Tabiiy geografiya» xaritasi yozildi. Kavkaz tog'larining go'zal tabiati, ajoyib manzaralari haqida shunday hikoyalar boshlanib ketdiki, hammamiz og'zimizni lang ochgancha angrayib qopmiz... Dars davomida qiyqiriq, «hay-yo hayt», «guldur-guldur» ovozlar avjga chiqib eshitilib qolar, bu biz bolalarniki emas, yangi o'qituvchimizniki edi: «Ana, cho'qqilarida oppoq qor quyosh nurlarida yaltillab turgan muazzam tog'lar. Ular etagidagi qalin o'rmonni qarang! Shu o'rmon oralab, so'ngra ko'm-ko'k o'tloq maydon uzra bir-birini quvalab, juptang-juptang qilib kiyiklar chopib yuribdi. Oh, ularning go'zalligini ta'riflashga til ojiz! Qaranglar, qaranglar, boshiga qorako'l terisidan tikilgan uzun qalpoq kiyib olgan ovchi takatang-takatang qilib, ot choptirib kelib qoldi-ku! U bilintirmay egardan tushdi, palma daraxtlari oralab o'tdi, mevalari g'arq pishgan mandarin shoxlari orasiga yashirindi. Miltig'ini

to'g'ri-la-ab, badanglatib otib yubordi-yu... xayriyat, xayriyat, eh, yaxshilar, omonlik-omonlik! — o'q nishonga tegmadi. Kiyikjonlar yana juptang-juptang qilib, o'z vatanlari — olis tog'lar tomon qochib qolishdi...»

Tasavvur qiling, bu tafsilotlar shunchaki mohirona shavq-zavq bilan aytib berilayotgani yo'q. Baqbaqalaridan tortib keng peshonalarigacha jiqqa ter qoplab ketgan domlamiz partalar oralab kiyik misol «juptang»lab chop boshlaydi, bir qarasangiz ot ustida «qamchi» (qo'lidagi tayoq)ni o'ynatib chavandoz misol hayqiradi, bir qarasangiz, oxirgi partada o'tiradigan Sobirjon akaning orqasiga yashirib, yelkasiga «miltiq qo'ndog'i»ni qo'yganicha «badanglatib» o'q uzadi, undan hurkkan kiyiklarning yana «juptang»lab qochib qolishlarigacha qoyilmaqom qilib ko'rsatadi, xuddi kino deysiz!

Domla butun sinfni sehrlab qo'ygan, hamma dong qotib u kishining hikoyasini tinglardi. Nihoyat, «hafsalasi pir bo'lgan ovchi miltig'ini g'iloqga joylab, hushtak chalib, qorabayir bedovini yoniga chaqira boshlagan» payt dars tugab, qo'ng'iroq chalinib qoldi. Vaqt shu qadar tez o'tib ketganini sezmaymiz.

«Savol-javob sabog'i»



yanagi safarga qoldirildi.

Shundan keyin «SAGUni bitirib kelgan», har gapining birida «biz ko'p narsani bilamiz, o'qib o'rganganmiz, boshdan kechirganmiz, ko'rganmiz-da!» deya maqtanib qo'yishni kanda qilmaydigan, g'aroyib o'z «metodika»si bor muallim Sunnat Aliyevich darsini orziqib kutadigan bo'ldik.

Domlamizning sinfga yaqinlashib kelishining o'zi alomat edi: doim yaltillab turadigan «amirkon etik» kiyib yurar, undan, har qadam bosganda «g'arj-g'urj»lab chiqadigan ovoz yaqin-atrofdagi kishilar diqqatini tortmasdan qolmasdi. Domla kelayotgani uning «g'arjli» etigidan ma'lum bo'lar, ur-to'polon bo'lib yotgan sinf suv quyganday jimib qolardi.

Dadaxon NURIY
(Davomi bor.)

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Uch yoshga borib qolgan
Chog'larim bo'lsa kerak.
Sal eslayman: biroz xush,
Ontarim bo'lsa kerak.
Qaydan bilay xonada
Erkatoy o'tirganim.
Aytganim-aytgan bo'lib,
Poshshoday o'tirganim:
Kichkina lampa shisha,
Chiroyli ham bejirim.
Men berilib o'ynayman
Ichimdan quvonib jim.
Sindirib qo'ydim bilmay,
Qo'lmdan tushib keldi,
Angrayib qoldim go'yo
Qushginam uchib keldi.
«Hay seni...» onam menga
Qaraganday bo'lditar.
Otam «tegma» deganday
Hingir-hingir kuldilar.
Shishajonim, shishajon
Es-hushimni yorildi.
Xayolimni band qilib,

NIHOLDA HAM BOR XAYOL

Menga o'zin tanitdi.
Shu sabab angladim men
Dunyoga kelganimni,
G'amxo'rim-otam, onam,
Nurga belanganimni.
Kun ketidan kun o'tib,
Sirtli boqdim atrofga.
Do'st tutinib qaradim
Yulduz, oyga, oftobga.
Salom sizga, dalajon,
Salom, sizga, gulbog'lar!
Salom sizga anhor, soy,
Salom sizga qirg'oqlar!
Yosh qalbimda ajib his
Qo'zg'ar olis-olistlar.
Qovunlarning hididan
Anqib yotar polizlar.
Nihol ko'kka intilar,
Niholda ham bor xayol,
Hayotin fikr qilar
Boshini egib xiyol.

G'o'zalarining shoxida
Shoda-shoda tuguncha.
Kuzatganim, ko'rganim
Yetar, deymen, buguncha.

III

Biz tuman markaziga
Yosh-qari «qal'a» deymiz.
Rivoyatda qal'ani
Go'yo dev qurgan emish.
Qal'adan nariroqda,
Ya'ni orqa tomonda
Kanal bor, u qazilgan,
Yaqin o'tgan zamonda.
Polvon kanal va Amu
Oralig'i Atovdir.
Aholisi kentliklar,
Mehnatsevar, olovdir.
O'n-o'n beshta xonadon
Siyrak-siyrak joylashgan.
Biz turgan joyni Fanna

Razzoq IBROHIM

Ovasi deb atashgan.
Kunchiqarda bizlarga
Kuka ovasi qo'shni.
Ma'rakasi, to'yi bir,
Yo'qlashib yor-u do'stni.
Kunbotarda qishloqcha
Kura degan elat bor.
Shevasi o'ziga xos,
Og'iz birlilik-odat bor.
Uning qibla qismida,
Qayir ovasi yashar.
Ko'lcha-ko'lcha yer ochib,
Rizqi-ro'z deb talashar.
Bildingiz maskanimni,
Daryoliq to'qayidan-
Hazorasp tumanin
Atov degan joyidan.
Zavq bag'ishlar, qarasang
Furang'i, qamishzori.
O'simtliklar gulida
G'o'ng'illar asatari.

(Davomi bor.)

Tabiati betakror bo'lgan Hasanboy qishlog'ida xalqimizga yaxshi tanish bo'lgan rassom Aziza Mamatova yashaydi. Biz rassom xonadoniga kun peshindan oqqanda kirib bordik. Aziza opa bir to'p bolalar bilan tomorqada ishlayotgan ekanlar. Avvaliga, bu bolalar kim bo'ldi ekan, deb o'ylagandik. Hayronligimizni sezgan uy sohibasi kulib:

-Bular mahallamiz bolalari. To'g'rirog'i, ular mening kichik ilhom parilarim, -dedilar hovliga kirib kelayotgan kichikintoy Hasan va Husanlarni ko'rsatib...

Ularning rassom xolasi negadir ijodxonasi-yu uylariga qulf osmaydi. Mahallaning barcha bolalari bu uyni yaxshi bilishadi va yaxshi ko'rishadi.

Nega deysizmi?

Keling, yaxshisi bolalarning o'zlaridan so'ray qolaylik-chi?...

Husan: -Aziza xolamni mahallamizga ko'chib kelganidan buyon taniyman. Ular bizga bo'yoqlar ham gapiradi,-deb aytadilar. Rosti, bu gapga boshida ishonmagandim. Keyin esa ular chizgan rasmlarni ko'rib, bu gapga ishonib qolyapman. Aziza xolamni juda yaxshi ko'ramiz. Ular dunyodagi barcha mashhur rassomlarni biladilar.

Hasan: -Buvimdan, bobomdan eshitdim. Rassomchilik yaxshi kasbmas, -dedilar. Chizayotgan har bir odam rasmi, rassomdan jon so'rar ekan. Aziza xolamdan buni so'rasam, ular to'g'ri aytishibdi, har bir asarimni tugatganimdan so'ng men ham toliqib, charchab qolaman, -deb aytadilar. Aziza xolam, nega barcha

rasmlaringizda otlar bo'ladi, degan savollaringizga shunday javob beradilar: Otlar hech kimga yomonlik qilmaydi, ular beozor jonivor.

-Yomonlik nima o'zi?- deb so'radim.

-Birovni yig'latish, yolg'on gapirish, g'iybat qilish, ko'ngliga ozor berish, bu yomon ish,- deydilar. Aziza xolam mahallada hech kimga yolg'on gapirmaydilar.

qishloqning u chetidan kelgan mahalladoshlarim 2- qavatdagi ijodxonamga chiqa olmayptilar.

Shuning uchun tomorqamdan yana bir joyni ustaxona uchun ajratdim. Bunga esa vaqt kerak...

Aziza Mamatovaning asarlari bilan tanishaib chiqar ekanman, qiziqib so'rayman:

Mehr eshigi

atvorimdagi to'g'ri so'zilikni bilsalar kerak. Shaharda ham ko'p yashadim, sara asarlarimni ham shahardagi ko'p qavatli uyimda yaratdim. Endi esa

kengliklar bag'rida ijodga sho'ng'iganman. Hasanboydagi ilk ijodimni O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf portreti bilan boshlagan edim. Asar garchi qiyinchiliklar bilan 4 oyda bitgan bo'lsa-da, badiiy akademiyaga qo'yilgandan so'ng tomoshabinlar diqqatiga sazovor bo'ldi. Yaqinda esa shoir yubileyining 50 yilligiga bag'ishlangan sahna asarini tamomladim. Ming afsuslar bo'lsinki, men Muhammadjonga tirikligida so'z bergandim, portretningizni ishlab beraman, deb. Hatto, bir necha bor uchrashanimizda portret tayyormi,- deb so'ragan edi ham.

-Yurtimizning har bir go'shasida rassom bo'lishni istayotgan bolalarga nima degan bo'lardingiz?

-Rassom bo'lish oson emas. Rassom avvalo badiiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ko'p kitoblar o'qib, ta'sirlanishi kerak. Ayni paytda men Kamoliddin Behzod nomidagi milliy-tasviriy san'at va dizayn Oliygo'hrining rang-tasvir va qalam tasviri fanidan yosh musavvirlariga saboq berayapman. 31 yillik ish faoliyatimda ko'plab shogirdlarni kamolga yetkazdim.

Bolalarga birgina maslahat: hayot yo'llarida adashmasinlar. Mehnat bilan do'st bo'lishsinlar.

Ma'mura MADRAHIMOVA
suhbatlashdi.

RASSOMNING UYI

To'g'risini aytadigan bo'lsak, bu bolalar rassom xonadonida adabiyot darsini kuzatadilar. Chunki ustaxonadagi

20 dan ortiq shoir va yozuvchilarning portretlarini ko'rib, zavqlanadilar. Bu hovliga faqat bolalar kelar ekan-da, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, adashasiz. Qishloqning u chekkasidan bu chekkasigacha chollar va kampirlar ham erinmay kelaveradilar. Axir bu yerni mahalla deb qo'yibdilar-da. Hurmat, qadr-qimmat, e'tibor va eng asosiysi - mehr bor.

Qiziqib, Aziza opadan so'rayman:

-Keksalar ham kelishadi,- deng.

-Ha, nabiralari va farzandlaridan asarlarim tarixini eshitib qiziqadilar shekilli, kelib turishadi. Ammo

-Ijodxonangizdagi asosiy chizilgan rasmlarni portret janri egallab turibdi.

Sababini nimada deb tushuntira olasiz?

-Men odamlarni juda yaxshi ko'raman. Rassomchilikda portret janri shoh asar hisoblanishi bilan murakkab janr hamdir. Chunki inson siymosini

yaratish og'ir ish.

-Aziza opa, Yevropaning buyuk musavviri Rembrandga katta shaharning g'ala-g'ovuri juda yoqar ekan. Sizdek rassom esa Hasanboyga kelib ijod qilmoqda. Nima uchun?


-Meni taniganlar, bilganlar fe'l-




RASSOMNING UYI

SAVOLLAR:

- Boyiga:** 1.Ijod mahsuli. 2.Hikmatli so'z. 3.Zebo. 4.Yaxshi ish. 5.Ko'p. 8.Nok aksi. 9.Tutgun ayol. 12.Ulov. 14.Uy qismi. 19.Belbog'. 20.Temir ip. 21.Finish. 25.Bilim bilog'i. 26.Darak. 29.Sekin.



- Eniga:** 2.Zarbul... 6.Ona. 7.Shoxona uy. 9.Meva. 10.Raqam. 11.Hech ham. 15.Maxfiy. 16.So'zla. 17.Shaxmatdagi hol. 18.Oz. 22.Mansab. 23...? Nima? 24.Qishki transport. 27.Upa. 28.Faqat. 30.Mard.



Tuzuvchi: .
Nargiza RAHMONOVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod shahridagi
9-maktabning 6-«A» sinf
o'quvchisi.

SINGILJONIM

Singiljonim erkatoj,
Fili biyron, yuzi oy.
Aytganimni qiladi,
E'tiborni biladi.

She'rlarni tez yod olib,
Bizni ortda qoldirib,
Quvonadi, kuladi,
Singlim zo'r qiz bo'ladi.

Ertak aytib beraman,
Eshitar quloq solib.
Finglashni bilgani-chun
Bo'lar har ishda g'olib.

QISH FASLI

Mana yog'di yana qor,
Oppoq bo'ldi dalarlar.
Yogqanda birinchi bor,
Quvonishdi bolalar.

Osmondan gup-gup tushib,
Oq to'nini kiygizdi.
Oq paxtaday tizilib,
Oppoq suratlar chizdi.

Laylak qor-u sumalak,
Sovug'in boshlab keldi.
Issiq uyga kiring, deb
Qish boba har yon yeldi.

Muattarxon NIYOZMETOVA,
Sobir Rahimov tumanidagi
29-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar! Diyorimizda «O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi» tashabbusi bilan Respublika bolalar badiiy festivali bo'lib o'tganidan xabaringiz bor. Poytaxtimizning muhtasham «Xalqlar do'stligi» saroyida festival g'oliblarining katta konserti hamda estradamiz yulduzlarining ushbu marosimda bolajonlarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tgani hamon ko'z o'ngimizda. Ozod yurtning baxtiyor bolalari uchun bu kun chinakam bayramga aylandi.

Tengdoshingiz Nuron Malika Jumaboyevalar ham shu Muqimiy - kuni katta konsertga fortepianoda, yo'llanmani Q u d r a t q o ' l g a Akbarov - «Yangi avlod» festivali kiritishgan violonchel cholg'u bo'lsa, asbobida, Dinara Aleksandr Egay esa kichik Shaxiddinova -skripkada, yoshida raqs bobida buncha Yana Lyashko- arfa cholg'u mahoratni qayerdan oldi ekan, asboblarida mahoratlarini a, degan xayolga toldirdi. «Yosh namoyish qilgan kunda 300 doirachilar», «Guldasta», dan ortiq bolalar orasidan «Assalom yangi avlod» kabi

«Shoshmaqom» ni me'yoriga kelsak, mening ovozim ko'proq yetkazib kuylash. maqom yo'nalishidagi

S h a h z o d JO'RAYEV, shu guruhning 6-sinf o'quvchisi:

-Hozirda men ham Dilnoza kabi musiqa maktabida tahsil o'lyapman. Ustozim Temur va Donyor akalardan kuylash san'atini qunt bilan o'rganib kelmoqdaman. «Dutorim», «Saftinomai - Saftikalon», «Kuygay» kabi qo'shiqlarni rohatlanib kuylayman. Katta bo'lsam albatta an'anaviy maqom yo'nalishidagi qo'shiqlar



qo'shiqlarga to'g'ri keladi.

-Fotima HAMROYEVA:

-Qalbidagi ezgu hislarimni she'riy satrlarga muhrlashga intilaman. Ona tabiat go'zalligini, yoshlik shijoatini, gullar

ISTE'DOD YUZ OCHGAN KUN

chinakam iqtidorlilari tanlab olindi degan xulosaga keldik. Obid Ziyodullayev - nayda, «Erkinoy» raqs dastasi, Lem Sabina, Irina Tyan- estrada yo'nalishidagi qo' shig'i bilan olqish olishgan bo'lishsa, «Tong yulduzi»mizda ajoyib she'rlari bilan tanilib qolgan Fotimabonu Hamroyeva vatanni madh

dasta va guruhlar ham katta konsertga yo'llanma olishdi va o'z san'atlarini katta dargohda namoyish ham etishdi. G'olib iste'dod egalarini suhbatga tortamiz:

Dilnoza JAKBAROVA, Glier nomidagi Akademik litseyning o'quvchisi:

-Men milliy qo'shiqlarimizni kuylashni yaxshi ko'raman. Shu sababli o'qishimni maqom yo'nalishida davom ettiryapman. «Ayt masmidim» «Qadimiy ushshoq», «Aylab keling» kabi maqom yo'nalishidagi qo'shiqlarni sevib

kuylayman. Bugungi bayramda qatnashganimdan xursandman. Tengdoshlarimning bir- biridan mahoratli chiqishlarini ko'rib rosa quvondim. San'at arbobi Temur aka Mahmudov mening ustozim bo'ladilar. San'atning sir- asrorlarini ulardan o'rganayotganimdan behad minnatdorman. Kelgusidagi katta orzuimdan biri

ijrochisi bo'laman. Xalqimizning sevimli hofizlari Fattohxon Mamadaliyev, Ochilxon Otaxonovlar kabi kuylashni

nafosatini, bulbullar xonishini tinmasdan yozaversam... Do'stlarimning ijodlaridan, kuy- qo'shiqlaridan bir olam taassurotlar oldim. Ularga havasim keldi. Qaniydi, shunday festivallar tez- tez o'tkazib turilsa.



Elmira AHMEDOVA, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Markaziy ko'rgazma zalining direktori:

- Bolalar kulsa dunyo shodlikka to'ladi. San'atsevar yoshlarning mahorati, tirishqoqligi, ziyakligi, jonli ijrodagi bulbuldek ovozlari, betakror raqslari barchani lol qoldirdi. Ko'rgazma zalini bezab turgan 150 nafar bolajonlarning o'z qo'llari bilan yaratgan san'at

istayman.

-Nega estrada yo'nalishida qo'shiqlar kuylamaysiz, - deya so'raymiz Sevdiyorjondan.

-Yoshligimdan Toshkent, Farg'ona, Xorazm yo'lidagi maqom qo'shiqlariga qiziqaman. San'at yo'li juda murakkab, kishida sharoit bo'lgani bilan iste'dod va ovoz bo'lmasa barisi

b e k o r . Kuylayotgan qo'shig'ingni maromiga yetkazib ijro etish uchun ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Dadajonim O'zbekiston Xalq hofizi Farhod aka Davletov birinchi ustozim bo'ladilar. Ko'pincha uyimizga ulug'san'atkorlar kelib turishadi. Ularning tongga qadar berilib xonish qilishlari qalbidamumtoz qo'shiqlarga havas uyg'otdi. Estrada yo'nalishiga



asarlari orasida Irina Buchok, Indira Zuparovalarning chizgan rasmlari yuqori o'rinlarga sazovor bo'ldi. «O'zbekiston

madaniyati va san'ati Forumi» jamg'armasi tashabbusi bilan boshlangan bolalar badiiy festivali bundan keyin ham o'tkaziladi va minglab yosh iste'dodlarni kashf qilaveradi.

Aziz bolajonlar, san'atimizning ertasi bo'lgan tengdoshlaringizning qalbidagi orzular gullab-yashnayversin, - deymiz. Elimizning ertasi, g'ururi va sha'ni ham ular bilan barobar ulg'ayib, ulkan daraxtlarga aylanadi, deb umid qilamiz. Uning shig'il mevalari ham illo, bizniki bo'lajak.

Jamila ERDONOVA.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV, Shuhrat AHMEDOV, Botir UBAYDULLAYEV, Jabbor RAZZOQOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Abdusaid KO'CHIMOV, Nurhon NAFASOV, Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida

N: 022 raqam bilan 2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi. Gazeta

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3, 2 bosma taboq. Adadi - 46550

Buyurtma N: J 890

Dizayner va sahifalovchi.

Otabek ESHCHANOV.

Navbatchi:

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38

144-38-10

144-21-75

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45

«O'ZBEKISTON SAN'ATI VA MADANIYATI FORUMI» JAMG'ARMASI

Asosiy maqsadi va vazifalari: O'zbekistonning boy tarixiy merosini targ'ibot-tashviq qilishdan iborat. Buning uchun turli ko'rgazmalar, konsertlar, teatr kino festivallari, xalqaro simpoziumlar, konferensiya, davra suhbatlari tashkil etadi.

Xorijlik fan va madaniyat arboblari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek Rossiya xalqi bilan O'zbek xalqi o'rtasidagi iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy va ta'lim yo'nalishidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan.

Ish uslublari:

1. Jamg'arma erkin, malakali, muomala munosabatlarini qo'llab hamkorlikni kuchaytirishni ko'zlaydi. Konferensiya, davra suhbatlari, madaniy festivallar, ko'rgazma va turli tadbirlarni rejalashtiradi.

2. Erkin ma'ruza-yu tadqiqotlar tarafdori. Jamg'arma o'zining matbuot nashrlarini, shuningdek elektron setdan veb-saytini ochishni ko'zlaydi.